



BOLALARNING AQLIY VA IJTIMOYIY RIVOJLANISHIDA ATROF- MUHITNING O'RNI

Choriyeva Surayyo Choriyevna

Termiz davlat pedagogika instituti, Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti,
Maktabgacha ta'lim kafedrasida o'qituvchisi

To'xtayeva Muslima

Termiz davlat pedagogika instituti, Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti,
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabasi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.17922253>

Annotatsiya: Ushbu maqolada ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy va ijtimoiy rivojlanishida atrof-muhitning roli ilmiy asoslangan holda tahlil qilinadi. Atrof-muhitning tarkibiy qismlari - oila, ta'lim tashkiloti, jamiyat va tabiiy muhit - bolalarning kognitiv jarayonlari, nutqiy rivoji emotsional barqarorligi hamda ijtimoiy kompetensiyalarga ko'rsatadigan ta'siri yoritiladi.

Kalit so'zlar: bolalar rivojlanishi, aqliy rivojlanish, ijtimoiy rivojlanish, sensor tarbiya, oila muhiti, rivojlantiruvchi muhit, ijtimoiylashuv, emotsional barqarorlik.

Аннотация: В данной статье представлен научно обоснованный анализ роли окружающей среды в умственном и социальном развитии детей младшего и дошкольного возраста. Подчеркивается влияние компонентов окружающей среды – семьи, образовательной организации, общества и природной среды – на когнитивные процессы, развитие речи, эмоциональную устойчивость и социальные навыки детей.

Ключевые слова: развитие ребенка, умственное развитие, социальное развитие, сенсорное воспитание, семейная среда, среда развития, социализация, эмоциональная стабильность.

Abstract: This article provides a scientifically based analysis of the role of the environment in the mental and social development of children of primary and preschool age. It highlights the impact of the components of the environment - family, educational organization, society and the natural environment - on children's cognitive processes, speech development, emotional stability and social competencies.

Keywords: child development, mental development, social development, sensory education, family environment, developmental environment, socialization, emotional stability.

Ilk va maktabgacha yosh davri bolaning shaxs sifatida shakllanishida eng muhim bosqich hisoblanadi. Bu davrda aqliy emotsional va ijtimoiy rivojlanishida irsiy omillar muhim bo'lsa-da, zamonaviy pedagogika va psixologiya tadqiqotlari






shuni ko'rsatadiki, atrof muhit ya'ni oila, ta'lim muassasasi, jamiyat va tabiiy muhit bolalar rivojlanishining asosiy omili. Atrof-muhit qanchalik boy, tartibli va rivojlantiruvchi bo'lsa, bola shunchalik har tomonlama yetuk shaxs sifatida kamol topadi. Bolaning atrof-muhitning ta'sirlariga javob reaksiyasini kuzatish orqali boladagi rivojlanish darajalarini bilishimiz mumkin. Bolaning aqliy rivojlanishida ham ijtimoiy rivojlanishda ham birdek atrof-muhitning o'rni beqiyosdir. Ilmiy ma'lumotlarga tayanib aytishimiz mumkinki, bolalar rivojlanish davrida hech kim bilan aloqa qilmasa rivojlanishdan ortda qoladi. Bu uning aqliy rivojlanishiga ya'ni nutqi, tafakkuri va fikrlashiga ta'sir ko'rsatadi. Bolaga ijobiy hayot doirasini ya'ni qobig'ini yaratib berish muhim ahamiyat kasb etadi. Xalqimizda bir maqol bor „ qush enida ko'rganini qiladi" bu maqol zamirida ajoyib ma'no bor. Ya'ni biz bolalarga nima ko'rsatsak bola o'ziga o'sha hislatni oladi. Qisqacha aytganda bola kuzgu kabidir biz kuzguga qanday qarajak u shu javobni beradi ya'ni ko'rsatadi. Bolaning ijtimoiy rivojlanishida atrof-muhit muhim ahamiyatga ega. Qisqacha aytganda bolaning moslashuv jarayonida unga ko'rsatiladigan mehr e'tibor va tarbiya orqali bola muhim insoniy fazilatlarni egallab boradi. Moslashish jarayonida bola bilan samimiy suhbatlashish mehr ko'rsatish orqali ijobiy xislatlarini shakllantirish mumkin. Bolalardagi moslashuv jarayonlarini yengillashtiruvchi asosiy omil bu tengdoshlari ya'ni jamoaga qo'shilishi ular bilan birga faoliyat olib borishi muhimdir. Bolalarga e'tiborsizlik bilan qarash, ularning faoliyatdan chetda qolishi bolaga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Natijada bolada ishonch ya'ni o'ziga bo'lgan ishonch ya'ni o'ziga bo'lgan ishonchning pasayishi kuzatiladi. Bu orqali bola tortinchoq, qo'rqqoq, o'z fikrini erkin bayon eta olmaydigan bo'lib qoladi. Boladan moslashuv jarayonlarini kechishida ota-ona va tarbiyachilar muhim rol o'ynaydi.

Xulosa qilib aytganda bolada moslashuv jarayonlarini olib borishga chuqur e'tibor qaratilishi lozim. Aqliy rivojlanishida e'tiborni o'yinning xilma-xilligiga berish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Choriyevna C. S. Education and Education of Pre-School Children on the Basis of Steam Educational Technology. – 2023.
2. Choriyevna C. S. Main Directions of Teacher Training and Improving Their Quality for the Preschool Education System //Vital Annex: International Journal of Novel Research in Advanced Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 5. – C. 51-54.
3. Choriyevna C. S. Ways to Develop Mental Abilities in Preschool Children //Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching. – 2022. – T. 15. – C. 174-177.





4. Choriyeva S. C. Talabalarni ta'limiy qadriyatlar asosida pedagogik faoliyatga tayyorlash tizimini takomillashtirishning mohiyati va mantiqiy jihatdan tahlili //Educational Research in Universal Sciences. 5. Choriyevna C. S. et al. A Model For Improving The System Of Preparing Students For Pedagogical Activity On The Base Of Educational Values //Multidisciplinary Journal of Science and Technology. – 2023. – Т. 3. – №. 6 (International Scientific Researcher). – С. 283-285. – 2023. – Т. 2. – №. 9 SPECIAL. – С. 99-102.
6. Чориева С. Ч. и др. Игра как ведущая деятельность ребенка дошкольного возраста //Gospodarka i Innowacje. – 2024. – Т. 48. – С. 138-140.
7. Чориева С. Ч. Умение учителя использовать современные образовательные технологии при подготовке учащихся к педагогической деятельности на основе образовательных ценностей //Экономика и социум. – 2024. – №. 10-2 (125). – С. 998-1001.
8. Choriyeva S. C. Talabalarni ta'limiy qadriyatlar asosida pedagogik faoliyatga tayyorlashni rivojlantirish tizimi //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 4 SPECIAL. – С. 1177-1181.
9. Choriyeva S. Maktabgacha ta'lim tizimida ta'lim samaradorligini oshirishning muammo va yechimlari //Физикотехнологического образование. – 2022. – №. 4.
1. 10. Choriyeva S. Didactic Opportunities Of The National Curriculum For Mother Tongue And Reading Literacy In Primary Schools //Conferencea. – 2022. – С. 527-529.

